
“Yoshlar daftari”

“YOSHLAR DAFTARI”

“Yoshlar daftari” — ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

“Yoshlar daftari”ni shakllantirish:

Tuman (shaharlar)dagi har bir sektor kesimida mahallabay “Yoshlar daftari”ga o'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan quyidagi toifadagi yoshlar kiritiladi:

ü ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar — muomalaga va mehnatga layoqatsiz, nogironligi yoki salomatligida nuqsoni bo'lgan (nafaqa olmaydigan), boquvchisini yo'qotgan, yetim, “Mehribonlik” uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalangan, muqaddam sudlangan, probatsiya hisobida, profilaktik hisobda yoki ma'muriy nazorat ostida turuvchi ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlar, shuningdek, “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi farzandlari;

ü iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar — tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini boshlash, shuningdek o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan ishsiz yoshlar;

ü psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar — jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynalayotgan, turli xil muammolar sababli ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj yoshlar (suitsid sodir etishga harakat qilgan va boshqalar);

ü ishsiz yoshlar — haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan mehnatga layoqatli yoshlar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno).

Yoshlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda o'rganiladi:

ü sektorlar ishchi guruhlar tomonidan birlashtirilgan mahallalarda fuqarolar yig'inlari xodimlari va faollari bilan birgalikda barcha yo'nalishdagi muammolarni har yarim yilda kamida bir marotaba, bunda yarim yillik tugaganidan so'ng keyingi oy davomida uyma-uy yurish orqali;

ü yoshlarning murojaatlarini (shu jumladan, elektron platforma orqali murojaatlarini) ko'rib chiqish orqali.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:

1. 1. *Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish*

Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir marta beriladigan moddiy yordamni tayinlashning aniq miqdori yoshning hayotiy vaziyati murakkabligini inobatga olgan holda bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq to'lab beriladi.

Bir marta beriladigan moddiy yordam to'liq davlat ta'minotida bo'lmagan, hayotiy murakkab vaziyatga tushgan yoshga, birinchi navbatda, quyidagilarga tayinlanadi:

ü boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga;

ü o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan ishga layoqatsiz yoshlarga;

ü I va II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga;

ü qaramog'ida nogiron bola bo'lgan yosh oila (er-xotinning biri)ga;

ü ota-onalardan biri I yoki II guruh nogironi bo'lgan, ikkinchisi esa ish faoliyatini to'xtatgan holda bemorga qarashga majbur bo'lgan yoki ikkala ota-ona ham I yoki II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga;

ü tabiiy ofatlar, halokatlar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga zarar yetgan yoshlarga.

Murakkab hayotiy vaziyatga tushgan boshqa toifadagi yoshlarga, asoslantiruvchi sabablari mavjud bo'lganda, sektorlar rahbarlarining xulosalariga asosan Vasiylik Kengashi qarori bilan bir martalik moddiy yordam berilishi mumkin.

Shaxsga bir martalik moddiy yordam berilishi uni "Yoshlar daftari"dan chiqarishga asos bo'lmaydi.

Moddiy yordam shaxsga bir kalendar yil davomida bir marotaba beriladi.

1. 2. *Tadbirkorlik, kasb-hunar, haydovchilik va qayta tayyorlov kurslarida o'qitish xarajatlarini qoplash*

Nodavlat kasb-hunarga o'qitish markazlariga "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismi "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Bunda, yoshlarni tadbirkorlikka o'qitish xarajatlarining har bir bitiruvchiga BHMning 4 baravaridan ortiq bo'lmagan qismi, kasb-hunarga va haydovchilik kurslarida o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning bir oygacha, bir oydan ikki oygacha, ikki oydan ortiq muddatli o'quv kurslari uchun tegishli BHMning 4, 8, 12 baravaridan ko'p bo'lmagan qismi qoplab beriladi.

O'quv kurslari xarajatlarining qolgan qismi tinglovchi tomonidan nodavlat kasb-hunarga o'qitish markaziga o'quv kursi boshida to'lab berilishi lozim.

O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga maxsus sertifikat beriladi.

Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limi buyurtmasiga asosan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar:

ü tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlarida kasb-hunarga;

ü Savdo-sanoat palatasi, "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash markazi, "Yosh fermerlar kengashi" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan alohida tashkil etiladigan 48 soatlik (haftalik) o'quv dasturi asosida tadbirkorlikka bepul o'qitiladi.

O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga maxsus sertifikat beriladi.

Xususiy korxona va tashkilotlarga ishga qabul qilingan hamda faoliyat boshlaganiga olti oydan oshmagan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qayta tayyorlov kurslarida o'qitish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning BHMning 4 baravarigacha bo'lgan qismi mazkur xususiy korxona va tashkilotlarga Vasiylik kengashi qaroriga asosan "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilinishi mumkin.

1. 3. *Urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun subsidiya ajratish*

Tomorqa yer egasi bo'lgan yoki "Har bir yoshga — bir gektar" tamoyili asosida ikkilamchi ijara huquqi asosida ekin maydonlari ajratib berilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun BHMning 8 baravarigacha miqdorda Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq to'lab beriladi.

Dehqon xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoshlarni sektor, klaster va fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan patronajga olish tizimi orqali "ustoz-shogird" tamoyili asosida yoshlarga ajratilgan yer

uchastkalarini o'zlashtirish, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish, yerlar hosildorligini oshirish, yetishtirilgan mahsulotni realizatsiya qilish va boshqa masalalarda yordam ko'rsatiladi.

1. 4. *Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilish uchun noturar joyning ijara xarajatlarini qoplash*

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yosh tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan yosh fuqaroga faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarining bir yilda 30 foizi, biroq BHMning 25 baravarigacha qismi qoplab berilishi mumkin.

1. 5. *Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishga subsidiya ajratish*

Tadbirkorlik yoki o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarga asbob-uskuna yoki mehnat qurollari (motokultivatorlar, o't o'rish o'roq mashinalari, perforatorlar, payvandlash apparatlari, o'simliklarga ishlov berish qurilmalari, duradgorlik, chilangarlik, qurilish uskunalar, kompyuter jamlanmasi va boshqalar)ni xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq subsidiya ajratiladi.

Arizachi kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malakani oshirish, tadbirkorlik va kasb-hunarga o'rgatish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan hamda maxsus sertifikatni olgan va tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, unga asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratiladi.

1. 6. *Mamlakatimizdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish bo'yicha to'lov-kontrakt summasining bir qismini to'lab berish*

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlarining, shuningdek, "Yoshlar daftariga" kiritilgan yoshlarning mamlakatimizdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarini to'lab berish "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshmagan miqdorda amalga oshiriladi.

1. 7. *"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga, jumladan, yosh oilalarga turar joy ijarasi kompensatsiyasini to'lash*

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yosh oilalarning sektorlar rahbarlariga va Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlariga bergan arizasiga muvofiq, ularga 12 oygacha turar joy uchun ijara kompensatsiyasi har oyda BHMning 3 baravaridan oshmagan miqdorda to'lab berilishi mumkin.

1. 8. *Ish bilan bandlikni ta'minlash*

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

ü Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, qurilish bo'limlari bilan hamkorlikda qurilish sohasida ishlash istagidagi yoshlarni hududdagi obyektlarni qurish ishlariga haq to'lash evaziga ish o'rinlariga joylashtirish;

ü Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tuman (shahar) hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, qishloq xo'jaligi bo'limlari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi sohasida ishlash istagidagi yoshlarni hududdagi fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari ishlariga haq to'lash evaziga ish o'rinlariga joylashtirish, shuningdek, "Har bir yoshga — bir gektar" tamoyili asosida g'alladan bo'shagan yerlarda takror sug'oriladigan yer maydonlaridan ekin ekish uchun va dehqon xo'jaligi yuritish uchun ikkilamchi ijara huquqi asosida ekin maydonlarini ajratib berish;

ü Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, investitsiya bo'limlari, tijorat banklari bilan

hamkorlikda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlash istagidagi yoshlarni tarmoq va hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarda, hududlardagi xususiy tadbirkorlik korxonalaridagi ish o'rinlariga joylashtirish;

ü tuman (shahar)lar hokimliklari aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlari bilan birgalikda mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o'rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

ü ishsizlik nafaqasini tayinlash va to'lash choralari ko'rish;

ü tuman (shahar)lar hokimliklari, Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari, Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan "Har bir tadbirkor — yoshlarga madadkor" tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish orqali ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rish.

1. 9. *Tadbirkorlikka jalb qilish*

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki tuman (shahar) filiallari orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun kredit olish istagida bo'lgan yoshlarga tijorat banklarga ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

ü tadbirkorlik tashabbusiga ega yoshlarning biznes loyihalarini moliyalashtirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;

ü mikrokredit olgan yosh tadbirkorlar faoliyatini doimiy kuzatib borish hamda ularga maslahat va ko'mak berish institutini shakllantirish;

ü o'quv kurslarini tamomlab va keyinchalik mikrokredit olib faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini monitoring qilib borishning yagona "raqamli" tizimini joriy etish;

ü bank mijozlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun xaridorlar topish va bozorlarni kengaytirishda ko'maklashish.

Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha nodavlat kasb-hunarga o'qitish markazlari kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, maxsus sertifikatni olgan yoshlarga o'z biznesini tashkil etish uchun "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan quyidagicha mikrokredit ajratiladi:

ü tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan yoshlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha bo'lgan miqdordagi mikrokreditlar ta'minotsiz ajratiladi;

ü mikrofirma va kichik korxona ta'sis etgan shaxslarga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislar, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'minot turlari asosida 225 million so'mgacha miqdorda mikrokreditlar ajratiladi.

Kreditlarning foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasida belgilanadi.

Kreditlarni ilgari olingan kreditlar yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarishga, shaxsiy ehtiyoj uchun avtotransport sotib olishga, ma'muriy xarajatlarni to'lashga, jumladan, avtotransport vositasining ta'minoti, mebel, aloqa xizmatlari to'lovi va uyali telefon sotib olishga hamda qonun hujjatlari va Markaziy bankning qoidalariga ko'ra taqiqlangan faoliyatlarga ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditlar 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi.

Tijorat banklari tomonidan yoshlarga baliqchilik, quyonchilik, parrandachilik, asalarichilik, meva-sabzavotchilik, uzumchilik, tikuvchilik, hunarmandchilik va boshqa ilg'or sohalarda faoliyatlarini tashkil etish uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratiladi.

Bunda, Savdo-sanoat palatasi, "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasining hududiy bo'linmalari joylarda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish va biznes loyihalarini tuzishga ko'maklashadi.

1. 10. *Xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish*

Yoshlarning xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ü tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan xorijga chiqib ketayotgan yoshlar ishga yuborilishidan oldin davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida, xususan hududlardagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlarida kasb-hunarga o'qitiladi (xorijiy ish beruvchining malaka talablariga javob beradigan shaxslar bundan mustasno).

ü tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yoshlarning haq-huquqlarini ta'minlashga va ko'maklashishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

ü mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan yoshlarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralar-tadbirlar ko'riladi.

1. 11. *"Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badalini qoplash*

"Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati badali Vasiylik kengashi qaroriga asosan "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

1. 12. *Tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish*

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga tibbiy xizmat ko'rsatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ü tibbiy yordamga muhtoj yoshlarning sog'lig'i sektor ishchi guruhlari tomonidan tegishli tibbiyot xodimlarini jalb qilgan holda o'rganiladi;

ü o'rganish natijasi bo'yicha kasallik aniqlangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar tibbiy ko'rikdan o'tish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga yuboriladi;

ü tibbiy ko'rik natijasi yuzasidan ko'rsatma bo'yicha tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida statsionar yoki ambulator sharoitda davolanadi;

ü ahvoli og'ir bo'lgan bemorlarga ko'rsatma bo'yicha viloyat ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalariga yoki respublika ixtisoslashtirilgan markazlariga davolanish uchun bepul order ajratiladi;

ü nogironlik belgilari aniq namoyon bo'lgan bemorlar belgilangan tartibda ko'rikdan o'tish uchun Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga yuboriladi.

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlarining mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlarning BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdordagi qismi tegishli soha mutaxassislari xulosasiga asosan Vasiylik kengashi tomonidan "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Huquqiy yordam olishga muhtoj yoshlarga sayyor qabullar orqali quyidagilar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatiladi:

ü *prokuratura organlari* — huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan yoshlarga amaliy yordam ko'rsatish, sudga murojaat qilish tartibini tushuntirish, sudga murojaat qilish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'maklashadi;

ü *ichki ishlar organlari* — tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoshlarni ushbu tahdidlardan himoya qilish choralarini ko'radi;

ü *adliya organlari* — bepul huquqiy maslahatlar beradi.

Psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish respublika markazi, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunali markazlari, Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi, Respublika ijtimoiy moslashuv markazi, ta'lim muassasalarining malakali psixologlari tomonidan psixologik maslahatlar berib boriladi.

Psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan pullik psixologik xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq xarajatlar Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

1. 13. *Yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, besh muhim tashabbusni ro'yobga chiqarish va uning doirasidagi tadbirlarni "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish*

Sektorlar rahbarlari, tuman (shahar) hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari, ta'lim muassasalaridagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha tashabbuslari, ularning ehtiyojlari va xohish-istaklari o'rganiladi va Vasiylik kengashiga tegishli tadbirlarni moliyalashtirish haqida taklif kiritiladi.

Yoshlar quyidagi hollarda "Yoshlar daftari"dan chiqariladi:

- ü bandligi ta'minlangan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lganda;
- ü to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlar belgilangan tartibda to'lab berilganda;
- ü tadbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning ijara xarajatlari qoplanganda yoki mazkur faoliyat uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratilganda;
- ü turar joy ijara kompensatsiyasi belgilangan tartibda to'lab berilganda;
- ü malakali tibbiy xizmat ko'rsatilganda;
- ü to'liq davlat ta'minotiga olinganda;
- ü aniqlangan boshqa muammolari qonuniy hal etilganda;
- ü o'z arizasiga ko'ra;
- ü "Yoshlar daftari"ga noqonuniy kiritish holati aniqlanganda;
- ü boshqa davlatlarga ishlash yoki doimiy yashash uchun chiqib ketganda;
- ü sudning ozodlikdan mahrum etishni nazarda tutuvchi hukmi qonuniy kuchga kirganda;
- ü arizachiga ko'mak berish bo'yicha ish olib borish imkonini bermaydigan boshqa holatlar yuzaga kelganda;
- ü arizachi vafot etgan taqdirda.

Ish beruvchi tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq to'lovi hisoblanganda hamda ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining markazlashtirilgan axborot bazasida va Yagona milliy mehnat tizimida aks etgan taqdirda ish bilan bandligi ta'minlangan deb hisoblanadi va "Yoshlar daftari"dan chiqarish uchun asos bo'ladi.

Данғара тумани
Адлия бўлими бошлиғи
Шукурулло Тиллаев

2022-11-24 09:35:39